

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI**  
**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**SIRTQI TA‘LIM SHAKLLARI**  
**BOSHLANG‘ICH TA‘LIM YO‘NALISHI BITIRUVCHI**  
**TALABALARI UCHUN**

**MAJBURIY FANLARDAN**  
**YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYA**

**D A S T U R I**

Andijon-2025

Andijon davlat universiteti Kengashining 2025-yil 29-yanvardagi 7-sonli  
yig'ilish qaroriga muvofiq tasdiqlangan

Yakuniy davlat attestatsiya dasturi Andijon davlat universitetida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:**

**D.Nurmanova – Pedagogika kafedrasini mudiri, DSc**

**A.Akbarov – Pedagogika kafedrasini katta o'qituvchisi, PhD**

**Kafedra mudiri:**



**D.Nurmanova**

**O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i  
o'rinbosari:**



**J.Usmonov**

**Axborot texnologiyalari bo'yicha  
prorektor:**



**M.Maxkamov**

## KIRISH

Mazkur dastur Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining taxsil olish mobaynida majburiy fanlarini o'qib o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun o'tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari bo'yicha ishlab chiqilgan.

2024-2025 o'quv yili bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bitiruvchi talabalaridan yakuniy davlat attestatsiya test sinovlari universitet Kengashining 2024-yil 29-iyundagi 13-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan ishchi o'quv rejadagi majburiy fanlaridan o'tkaziladi.

### **Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarida o'tkaziladigan fanlar tarkibi:**

1. Ona tili
2. Ona tili o'qitish metodikasi
3. Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi
4. Matematika o'qitish metodikasi

#### **1. ONA TILI**

##### **1-MODUL. KIRISH**

###### **1-mavzu. Til ijtimoiy, doim o'zgarib, rivojlanib turuvchi hodisadir.**

O'zbek tili - O'zbekiston Respublikasining Davlat tili ekanligi. Hozirgi o'zbek adabiy tilining tuzilish uzvlari (elementlari): tovushlar tizimi, leksikasi (yoki lug'at tarkibi), grammatik qurilishi.

###### **2-mavzu. Milliy va adabiy til.**

O'zbek adabiy tili va uning tayanch dialekti (lahjasi). Adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari. Tilning paydo bo'lishi, tillarning taraqqiyoti, tillarning tasnifi.

##### **2-MODUL. FONETIKA**

###### **3-mavzu. Fonetika va fonologiya.**

Hozirgi zamon ona tilining fonetik va fonologik tizimi (sistemesi) haqida ma'lumot. Ona tilining fonetik vositalari: nutq tovushlari, urg'u, ohang (intonatsiya). Fonema, uning so'z ma'nosini farqlashdagi roli. Hozirgi ona tilining fonemalari. Nutq a'zolari va

ularning vazifasi. Nutq apparati. Artikulyatsiya. Artikulyatsiya o‘rni va artikulyatsiya usuli. Fonetik akustika, tovush balandligi, kuchi, tembri, tempi va cho‘ziqligi.

#### **4-mavzu. Ona tilining vokalizmi va konsonantizmi.**

Unli tovushlar, tilning gorizontol, vertikal harakatiga ko‘ra hamda lablarning ishtirokiga ko‘ra unli tovushlar tasnifi. Undosh tovushlar, ularning artikulyatsiya (hosil bo‘lish) o‘rniga, usuliga hamda ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra tasnifi.

#### **5-mavzu. Nutqning fonetik bo‘linishi.**

Nutqning asosiy fonetik birliklari: fraza (jumla), takt (sintagma), fonetik so‘z, bo‘g‘in, tovush. Urg‘u va uning turlari: so‘z urg‘usi (leksik urg‘u), gap urg‘usi ( mantiqiy urg‘u); bog‘liq va erkin urg‘u. Urg‘u olmaydigan birliklar. Urg‘uning so‘z ma‘nosini farqlashdagi roli.

#### **6-mavzu. Nutq tovushlarining fonetik o‘zgarishlari.**

Nutq jarayonida tovushlarning o‘zgarish xususiyatlari: kombinator o‘zgarishlar (assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza), pozitsion o‘zgarishlar.

#### **7-mavzu. Orfoepiya haqida umumiy ma‘lumot.**

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining orfoepik me‘yorlari, unlilar orfoepiyasi, ayrim undoshlar orfoepiyasi, ayrim grammatik shakllar orfoepiyasi. Ayrim orfoepik me‘yorlarning imlo qoidalariga (orfografik me‘yorlarga) mos kelmaslik hollari.

#### **8-mavzu. Grafika va orfografiya.**

Ona tili grafikasi (yozuv tizimi) haqida ma‘lumot. Harf tilning asosiy grafik vositasi ekanligi. Tovush va harf. Alifbo (alfavit).

**9-mavzu.** Ona tili imlosi va uning asosiy tamoyil(prinsip)lari; morfologik, fonetik, an‘anaviy-etimologik, differensiyalash, grafik tamoyillar. Morfologik tamoyilning asosiy va yetakchi tamoyil ekanligi. Ona tili imlosining asosiy qoidalari: ayrim harflar, o‘zak-negiz va qo‘shimchalar, qo‘shma so‘zlar imlosi; bo‘g‘in ko‘chirish, bosh harflarning yozilish qoidalari.

### **3-MODUL. LEKSIKOLOGIYA.**

**10-mavzu. Leksikologiya, uning obyekti, turlari, vazifalari. Ona tili lug‘at tarkibining ma‘no jihatdan tavsiflanishi.**

Leksema va so‘z, ularning o‘zaro farqlari. So‘zning leksik va grammatik ma‘nosi. Semema, sema. Bir ma‘noli va ko‘p ma‘noli so‘zlar. So‘zning o‘z va ko‘chma ma‘nosi. Ma‘no ko‘chirishning asosiy turlari; metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksiyadoshlik (ma‘noning vazifaga ko‘ra ko‘chishi; ma‘noning torayishi va kengayishi).

**11-mavzu. Lug‘at tarkibining shakl va ma‘no munosabatlari jihatidan tavsiflanishi.**

Ona tilida so‘zlarning shakl va ma‘no munosabatlariga ko‘ra turlari haqida ma‘lumot. Omonimlar, ularning ko‘p ma‘noli so‘zlardan (polisemantizmlardan) farqi. Sinonimlar (ma‘nodosh so‘zlar) va sinonimiya qatori. Antonimlar. Paronimlar. Omonim, sinonim, antonim va paronimlarning asosiy turlari va nutqda qo‘llanish xususiyatlari.

**12-mavzu. Lug‘at tarkibidagi so‘zlarning kelib chiqishi, ijtimoiy guruhlar tomonidan qo‘llanishi jihatidan tavsiflanishi.**

Tarixiy shakllanish jihatidan hozirgi ona tili leksikasi. Hozirgi ona tili leksikasining ijtimoiy-dialektal tarkibi: umumxalq leksikasi; dialectal leksik dialektizmlar; kasb-hunar leksikasi; termin va terminologik leksikasi (atamalar leksikasi); jargon va argolar.

**13-mavzu. Lug‘at tarkibining faolligi yoki nofaolligi jihatidan tavsiflanishi; lug‘at tarkibining hissiy-ta‘siriy bo‘yoqdorligi jihatidan tavsiflanishi.**

Ona tilining nofaol leksikasi, neologizmlar (yangi paydo bo‘lgan so‘zlar). Hissiy-ta‘siriy jihatdan o‘zbek tili leksikasi; umumiste‘moldagi hissiy-ta‘siriy bo‘yoqsiz va bo‘yoqdor so‘zlar.

**14-mavzu. Lug‘at tarkibidagi ajralmas birikmalar – frazeologik birikmalarning ma‘no va tarkib jihatidan tavsiflanishi. Leksikografiya (lug‘atshunoslik).**

Frazeologiya haqida ma‘lumot. Frazema til va nutq birligi sifatida. Frazemalarning ma‘no xususiyatlariga ko‘ra asosiy belgilari va turlari.

Leksikografiya haqida umumiy ma‘lumot. Lug‘atlar va ularning tiplari: ensiklopedik (qomusiy) va lingvistik (yoki filologik) lug‘atlar. Bir tilli va ko‘p tilli lingvistik lug‘atlar. Bir tilli lingvistik lug‘atlarning tiplari.

#### **4-MODUL. GRAMMATIKA.**

**15-mavzu. Morfemika va morfema haqida umumiy ma‘lumot.**

Morfema va uning turlari: o‘zak morfema va affiksial (qo‘shimcha) morfema. Affiksial morfemalarning turlari: so‘z yasovchi, lug‘aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi affikslar. Affiksial morfemalarning tuzilishiga ko‘ra turlari: sodda affikslar va murakkab affikslar.

**16-mavzu. O‘zbek tilida so‘z yasalihi.**

Tub va yasama so‘zlar. So‘z yasalihi haqida ma‘lumot. O‘zbek tilida so‘z yasash usullari: affiksatsiya, kompozitsiya, semantik, fonetik, abbreviatsiya. Affiksatsiya va kompozitsiya usullari - o‘zbek tilida so‘z yasashning eng asosiy usullari ekanligi.

**17-mavzu. Grammatika haqida umumiy ma‘lumot.**

So‘zning grammatik ma‘nosi va grammatik shakli. So‘zlarning sintetik, analitik, juft va takroriy, aralash hamda nol ko‘rsatkichli shakllari. Grammatik kategoriya haqida umumiy ma‘lumot. Grammatik kategoriya, grammatik ma‘no va ularni ifoda qiluvchi vositalar tizimi ekanligi. Morfologiya va sintaksis grammatikaning qismlari ekanligi.

**18-mavzu. Morfologiya haqida umumiy ma‘lumot.**

Morfologiya grammatikaning so‘z turkumlari va shu turkumlarga xos kategorioial, nokategorioial shakllar tizimini. Ona tilida so‘z turkumlari va ularni ajratish tamoyillari haqida umumiy ma‘lumot. Hozirgi ona tilida so‘zlarning mustaqil, yordamchi va alohida guruh so‘z turkumlariga ajratilishi.

#### **5-MODUL. MUSTAQIL SO‘ZLAR.**

**19-mavzu. Ot. Otning leksik-grammatik xususiyatlari. Otning ma‘nosi turlari.**

Ot so‘z turkumi sifatida. Atoqli otlar, ularning turlari; turdosh otlar, ularning turlari.

**20-mavzu. Ot turkumining son kategoriyasi; otlarning nokategorioial shakllari.**

Otlarning birlik va ko‘plik shakllari; otlarning nokategorioial shakllari.

**21-mavzu. Otlarning aloqa-munosabat kategoriyalari.**

Otlarning kelishik kategoriyasi. Otlarning egalik kategoriyasi.

## **22-mavzu. Otlarning yasalishi; otlarning tuzilish jihatdan turlari.**

Otlarning yasalishi: Otlarda modal forma yasalishi. Otlarning tuzilish jihatdan turlari: sodda, qo'shma, qisqartma, juft otlar.

## **23-mavzu. Sifat so'z turkumi.**

Sifatning leksik-grammatik xususiyatlari. Belgini darajalab ko'rsata olishi - sifat darajalari: oddiy, qiyosiy va orttirma daraja. Sifatlarning otlashishi.

## **24-mavzu. Sifatlarning yasalishi.**

Affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan sifat yasash. Sifatlarda modal forma yasalishi. Sifatlarning tuzilish jihatdan turlari: sodda, qo'shma, birikmali va juft sifatlar.

## **25-mavzu. Son va olmosh so'z turkumlari sifatida.**

Sonning leksik-grammatik xususiyatlari, morfologik belgilari, sintaktik vazifasi. Olmosh. Olmoshning grammatik ma'nosi, boshqa so'z turkumlariga morfologik ekvivalentligi (mosligi); otlashish xususiyatlari, gapdagi vazifasi. Olmoshlarning ma'no turlari: kishilik, o'zlik, ko'rsatish olmoshlari.

## **26-mavzu. Fe'l so'z turkumi sifatida.**

Fe'lning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar, o'timli va o'timsiz fe'llar.

## **27-mavzu. Fe'llarning nisbat kategoriyasi.**

Fe'l nisbat (daraja)lari: aniq, o'zlik, majhullik, birgalik, orttirma nisbatlarining grammatik ma'nosi va shakllari.

## **28-mavzu. Fe'llarning mayl kategoriyasi.**

Fe'l mayllari (xabar mayli, shart va buyruq-istak mayli), ularning o'ziga xos xususiyatlari. To'liqsiz fe'l.

## **29-mavzu. Fe'llarning zamon kategoriyasi.**

Fe'l zamonlari, ularning turlari (o'tgan, hozirgi va kelasi zamon fe'llari), o'tgan zamon fe'lining turlari: yaqin o'tgan zamon fe'li, uzoq o'tgan zamon fe'li, o'tgan zamon hikoya fe'li, o'tgan zamon davom fe'li, o'tgan zamon maqsad fe'li. Hozirgi zamon fe'lining turlari: hozirgi-kelasi zamon fe'li, hozirgi zamon davom fe'li, Kelasi zamon fe'lining turlari: kelasi zamon gumon fe'li, kelasi zamon maqsad fe'li.

## **30-mavzu. Fe'llarning shaxs-son kategoriyasi.**

Shaxs-son (yoki tuslovchi) affikslar. Ularning turlari: 1-guruh, 2-guruh, 3-guruh tuslovchilari; ularning qo'llanish xususiyatlari.

## **31-mavzu. Fe'lning vazifadosh shakllari.**

Sof fe'l va uning xususiyatlari, ravishdosh va uning xususiyatlari va turlari.

## **32-mavzu. Sifatdosh, harakat nomi.**

Sifatdosh uning grammatik ma'nosi, yasalishi; fe'l va sifatga xos xususiyatlari: (otlashish, shuningdek, tuslanish, zamon ifodalash xususiyatlari). Harakat nomi, uning grammatik xususiyatlari, yasalishi; fe'lga va otga xos xususiyatlari.

## **33-mavzu. Fe'lning yasalishi. Fe'lning modal shakllari va tuzilish jihatidan turlari.**

Affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan fe'l yasash. Sodda va qo'shma fe'llar. Juft fe'llarning o'ziga xos xususiyatlari. Fe'lning modal ma'no ifodalovchi shakllari: sintetik va analitik shakllari. Ko'makchi fe'llar. To'liqsiz fe'l.

### **34-mavzu. Ravish so‘z turkumi sifatida.**

Ravishning leksik-grammatik xususiyatlari. Ravishlarning ma‘no turlari: holat, miqdor-daraja, payt, o‘rin sabab, maqsad ravishlari. Ravishlarda daraja (oddiy, qiyosiy, ortirma darajalar). Ravishlarning yasalishi: affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan ravish yasash. Ravishlarning tuzilish jihatdan turlari: sodda, qo‘shma, juft va takroriy ravishlar.

## **6-MODUL. NOMUSTAQIL SO‘ZLAR.**

### **35-mavzu. Yordamchi so‘zlar. Ko‘makchilar.**

Yordamchi so‘zlarning grammatik xususiyatlari, turlari: asl ko‘makchilar, ot ko‘makchilar, fe‘l ko‘makchilar, ko‘makchi va kelishik qo‘shimchalari. Ko‘makchi otlar.

### **36-mavzu. Bog‘lovchilar va yuklamalar.**

Bog‘lovchilarning grammatik xususiyatlari. Bog‘lovchilarning qo‘llanishiga ko‘ra turlari: yakka bog‘lovchilar va takroriy bog‘lovchilar. Grammatik ma‘no va vazifalariga ko‘ra bog‘lovchilarning turlari

Yuklamalarning grammatik xususiyatlari. Yuklamalarniig tuzilishiga ko‘ra turlari: so‘z yuklamalar va affiks yuklamalar. Yuklamalarning ma‘no turlari: so‘roq va taajjub, kuchaytiruv va ta‘kid, ayiruv va chegaralov, aniqlov, gumon, inkor yuklamalari.

### **37-mavzu. Alohida guruh so‘zlar.**

Modal so‘zlar, ularning ma‘no va grammatik xususiyatlari, sintaktik vazifalari. Undovlar. Ularning grammatik xususiyatlari. Undovlarning otlashishi, sintaktik vazifasi. Undovlarning turlari: his-hayajon (emotsional) va buyruq-xitob undovlari. Taqlid so‘zlar. Ularning grammatik xususiyatlari, otlashishi, taqlid so‘zlarning sintaktik vazifasi; turlari: tovushga taqlid va shu‘la-harakatga taqlid so‘zlar.

## **7-MODUL. SINTAKSIS.**

### **38-mavzu. Sintaksis. So‘z birikmasi sintaksisi.**

Sintaksis haqida umumiy ma‘lumot. Gapda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi; teng va ergash bog‘lanish haqida umumiy ma‘lumot. Ergash bog‘lanish so‘z birikmasini hosil qiluvchi sintaktik munosabat ekanligi. So‘z birikmasi. So‘z birikmasining tuzilishi va grammatik ma‘nolari. Birikma tarkibidagi so‘zlarning aloqa turlari: boshqaruv, bitishuv, moslashuv. So‘z birikmalarining turlari.

### **39-mavzu. Gap sintaksisi. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra gap turlari.**

Darak, so‘roq, buyruq gaplar. His-hayajoniga ko‘ra turlari: his-hayajonli (undov) gaplar, his-hayajonsiz gaplar, ularning turlari (darak-undov, so‘roq-undov, buyruq-undov gaplar).

### **40-mavzu. Gap bo‘laklari haqida umumiy ma‘lumot. Bosh bo‘laklar.**

Ega va kesim (bosh bo‘laklar) ikki sostavli gaplarni shakllantiruvchi predikativ birliklar ekanligi. Ega va uning ifodalanishi. Kesim, uning ifodalanishi, tiplari: fe‘l-kesim va ot-kesim; sodda va tarkibli kesim. Ega bilan kesimning orasida tirening ishlatilishi. Ega bilan kesimning orasida tirening ishlatilishi haqida ma‘lumot.

### **41-mavzu. Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari.**

To‘ldiruvchi va uning ifodalanishi. Vositasiz va vositali to‘ldiruvchilar, ularning shakllanishi.

### **42-mavzu. Aniqlovchi va uning ifodalanishi.**

Sifatlovchi, qaratqich va izohlovchilar aniqlovchining turlari ekanligi.

#### **43-mavzu. Hol va uning ifodalanishi, turlari.**

Ravish holi, miqdor-daraja holi, payt holi, o'rin holi, sabab holi va maqsad hol. Gap bo'laklarining joylashish tartibi. Inversiya.

#### **44-mavzu. Gapning uyushiq bo'laklari.**

Uyushishning ifoda vositalari: sanash ohangi va teng bog'lovchilar. Uyushiq bo'lakli gaplarda umumiy va umumlashtiruvchi birliklarning qo'llanishi. Uyushiq bo'lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.

#### **45-mavzu. Gapning ajratilgan bo'laklari.**

Gap bo'laklarining ajratilish sabablari. Ajratilgan bo'laklarning turlari: ajratilgan ega, ajratilgan kesim, ajratilgan aniqlovchi (ajratilgan sifatlovchi, ajratilgan qaratqich, ajratilgan izohlovchi), ajratilgan to'ldiruvchi, ajratilgan hol. Ajratilgan bo'lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.

#### **46-mavzu. Gap bo'laklari sanalmaydigan birliklar.**

Undalma, kirish so'z, kirish birikma va kiritma gaplar; ularning boshqa gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaslik va o'ziga xos ohang xususiyatlari. Ularda tinish belgilarining ishlatilishi.

#### **47-mavzu. Gapning tuzilish jihatidan turlari. Sodda gap turlari**

Sodda va qo'shma gaplar. Soda gap turlari. Ikki bosh bo'lakli soda gaplar, ularning turlari.

**48-mavzu.** Bir bosh bo'lakli gaplar: shaxsi aniq, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan gaplar, atov (yoki nominativ) gaplar, infinitiv va vokativ gaplar. Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar (so'z-gaplar), ularning o'ziga xos xususiyatlari. To'liq va to'liqsiz gaplar. To'liqsiz gaplarning tuzilish va qo'llanish xususiyatlari.

#### **49-mavzu. Qo'shma gap, uning turlari. Bog'langan qo'shma gap.**

Bog'langan qo'shma gap, ergashgan (ergash gapli) qo'shma gap, bog'lovchisiz qo'shma gap. Bog'langan qo'shma gap. Bog'langan qo'shma gap qismlarining mazmun munosabati. Komponent (qism)lar orasidagi teng aloqa bog'langan qo'shma gap qismlarining o'zaro bog'lanish usuli ekanligi. Teng bog'lovchilar, teng bog'lovchi vazifasidagi ayrim yuklamalar, "bo'lsa", "esa" so'z shakllari bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar ekanligi. Bog'langan qo'shma gap qismlari (komponentlari) orasida tinish belgilarining ishlatilishi.

#### **50-mavzu. Ergashgan qo'shma gap, uning turlari: bosh gapdagi ma'lum bo'lakni izohlovchi ergash gaplar.**

Ergashgan qo'shma gap - bosh va ergash gaplarning tobelik munosabati asosida vujudga keladigan sintaktik birlik sifatida. Bosh va ergash gap, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Ergashtruvchi bog'lovchilar, shu vazifadagi ayrim yuklamalar, ko'makchilar, nisbiy so'zlar, turli fe'l shakllari (fe'lning shart, buyruq-istak shakllari. shuningdek, ravishdosh, sifatdosh va to'liqsiz fe'l ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar ekanligi. Ega ergash gapli qo'shma gap, kesim ergash gapli qo'shma gap, to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap, aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.

#### **51-mavzu. Bosh gapni to'liq izohlovchi ergash gaplar.**



Ravish ergash gapli qo'shma gap, daraja-miqdor ergash gapli qo'shma gap, payt ergash gapli qo'shma gap, o'rin ergash gapli qo'shma gap, sabab ergash gapli qo'shma gap, o'xshatish ergash gapli qo'shma gap, shart ergash gapli qo'shma gap, to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap, natija ergash gapli qo'shma gap. Bunday gaplarda ergash gapning bosh gapdagi biror bo'lakni (qismni) yoki butun bir bosh gapni izohlash xususiyati. Ergashgan qo'shma gap komponentlari orasida tinish belgilarining ishlatilishi.

#### **52-mavzu. Bog'lovchisiz qo'shma gap.**

Bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlarini o'zaro bog'lovchi vositalar. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarining birikish usullari. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi komponentlarning mazmun munosabati. Bog'lovchisiz qo'shma gap turlari: bir tipdagi va turli tipdagi komponentlardan tuzilgan bog'lovchisiz qo'shma gaplar. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.

#### **53-mavzu. Murakkab qo'shma gap, uning turlari: bog'lanish va bog'lovchisiz tuzilgan murakkab qo'shma gaplar.**

Murakkab qo'shma gap uch va undan ortiq komponentlarning mazmun va ohang jihatdan bog'lanishidan tuzilgan sintaktik birlik sifatida. Teng bog'lanish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplar.

#### **54-mavzu. Ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplar, aralash tuzilgan murakkab qo'shma gaplar**

Ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplarning turlari: to'g'ridan to'g'ri ergashish va ketma ket ergashish. Aralash tipda tuzilgan murakkab qo'shma gaplar. Murakkab (ko'p komponentli) qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.

#### **55-mavzu. O'zga gap va uning turlari.**

Ko'chirma gapli qurilma, o'zlashtirma gap. Ko'chirma gapli qurilmaning tarkibiy qismlari: muallif gapi va ko'chirma gap, ularning o'zaro bog'lanishi. Ko'chirma gapning muallif gapiga nisbatan prepozitiv, postpozitiv va inpozitiv holatlarda qo'llana olishi ko'chirma gapli qurilmalarning o'ziga xos xususiyati ekanligi. O'zlashtirma gap, uning o'ziga xos xususiyatlari. Ko'chirma gapli qurilmalarda tinish belgilarining ishlatilishi. Ko'chirma gapli qurilmalarni o'zlashtirma gapga aylantirishning o'ziga xos xususiyatlari.

#### **56-mavzu. Matn.**

Matnning ta'rifi, turlari va uni shakllantiruvchi vositalar.

### **8-MODUL. ISHORAT QOIDALARI (PUNKTUATSIYA).**

#### **57-mavzu. Ona tili punktuatsiyasining asosiy tamoyillari**

Mantiqiy-grammatik tamoyil, uslubiy tamoyil, differentsiatsiya tamoyili.

#### **58-mavzu. Ona tilida tinish belgilari**

Tinish belgilari va ularning tasnifi; tinish belgilarining qo'llanish o'rinlari.

### **9-MODUL. USLUBIYAT.**

#### **59-mavzu. Nutq uslublari.**

Uslubni shakllantiruvchi vositalar. Nutq uslublari, ularning turlari haqida ma'lumot. So'zlashuv, badiiy, rasmiy, ommabop, ilmiy uslublar.

#### **60-mavzu. Uslubiyat turlari.**

Leksik, fonetik, morfologik va sintaktik uslubiyat haqida.

## **2. ONA TILI O‘QITISH METODIKASI**

### **1-Modul. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasining umumiy masalalari**

**1-mavzu. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi fanining predmeti va vazifalari.**

Ona tili o‘qitish prinsiplari, ona tili o‘qitish metodikasining tekshirish usullari.

### **2-Modul. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitishning xususiy masalalari**

**2-mavzu. Savod o‘rgatish metodikasi.**

Savod o‘rgatish metodikasining maqsad va vazifalari. Savod o‘rgatishda hozirgi zamon analiz-sintez tovush metodi. Savod o‘rgatish jarayoni bosqichlari. Savod o‘rgatishda mashq turlari. Savod o‘rgatishda boshlang‘ich yozuvga o‘rgatish.

### **3-Modul. Husnixatga o‘rgatish metodikasi**

**3-mavzu. Xusnixatga o‘rgatishning maqsad va vazifalari, ahamiyati.**

Husnixatga o‘rgatish tarixidan ma’lumot. Yozuvning gigienik va metodik shartlari haqida ma’lumot. Yozuv qurollari va ulardan foydalanish. Xattaxtaga qo‘yiladigan talablar.

**4-mavzu. Husnixatga o‘rgatish tamoyillari va usullari.**

1-4 sinflarda husnixat darslari. Husnixat darslarini rejalashtirishga qo‘yiladigan talablar. 1-sinfda husnixat darslarini rejalashtirish. 2-sinfda husnixat darslarini rejalashtirish. 3-4-sinfda husnixat darslarini rejalashtirish.

### **4-Modul. Sinfda o‘qish metodikasi**

**5-mavzu. Sinfda o‘qish darslarining ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati va vazifalari.**

O‘qish darslarining tarbiyalovchi imkoniyatlari. O‘qish malakasi haqida tushuncha.

O‘qish malakalarining sifatlari: tez, ongli, ifodali o‘qish.

**6-mavzu. Boshlang‘ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish.**

Badiiy asarni tahlil qilishning adabiy asoslari. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning badiiy idrok etishdagi psixologik xususiyatlari. Boshlang‘ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash jarayoni.

**7-mavzu. O‘quvchilarni PIRLS topshiriqlari asosida badiiy asarni tahlil qilishga o‘rgatish.**

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini PIRLS tizimi asosida baholashga o‘rgatish.

**8-mavzu. Har xil janrdagi asarlarni o‘qitish metodikasining o‘ziga xos xususiyatlari.**

Ertakni o‘qitish metodikasi. Hikoya janridagi asarni o‘qitish metodikasi. She’r janridagi asarni o‘qitish metodikasi. Masal janridagi asarlarni o‘qitish metodikasi. Ilmiy-ommabop asarlarni o‘qitish metodikasi. Doston, topishmoq, tez aytish, maqol janridagi asarlarni o‘qitish metodikasi.

### **5-Modul. Sinfdan tashqari o‘qish metodikasi**

**9-mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish metodikasining maqsadi va vazifalari.**

To‘g‘ri kitobxonlik faoliyatini shakllantirish tizimiga tavsifnoma. Boshlang‘ich maktabda kitobxon o‘quvchilarni shakllantirish bosqichlari. Sinfdan tashqari o‘qish darslarining turlari.

## **6-Modul. Fonetika, grammatika, soʻz yasalishi va orfografiyani oʻrgatish metodikasi**

**10-mavzu. Kichik yoshdagi oʻquvchilarda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishda ona tilini oʻrgatishning ahamiyati.**

Ona tilini oʻrgatishning lingvistik asoslari. Boshlangʻich taʼlimda ona tilini oʻrgatish mazmuniga tavsifnoma.

**11-mavzu. Fonetika va grafika asoslarini oʻrgatish metodikasi.**

Kichik yoshdagi oʻquvchilarning ona tilini oʻzlashtirishida fonetika bilimining ahamiyati. Oʻquvchilarda soʻzning tovush va harf tarkibi haqidagi boshlangʻich tasavvurini shakllantirish.

**12-mavzu. Oʻquvchilarda grammatika va soʻz yasalishiga oid tushunchalarni shakllantirishning metodik asoslari.**

Grammatik tushunchalarning mohiyati va uni kichik yoshdagi oʻquvchilar oʻzlashtirishidagi qiyinchiliklar.

**13-mavzu. Boshlangʻich sinflarda soʻzning morfemik tarkibini oʻrganish metodikasi.**

Soʻzning morfemik tarkibini oʻrganish tizimi. Asos va qoʻshimcha ustida ishlashning mazmuni va metodikasi. Soʻz turkumlarini oʻrganish bilan bogʻliq holda soʻz tarkibi ustida ishlash.

**14-mavzu. Soʻz turkumlarini oʻqitish metodikasi.**

Boshlangʻich sinflarda oʻzlashtirish tizimi. Boshlangʻich sinflarda sifatni oʻrganish tizimi. Boshlangʻich sinflarda sonni oʻrganish tizimi. Olmosh, kishilik olmoshlarini oʻrganish metodikasi. Boshlangʻich sinflarda feʼlni oʻrganish tizimi.

## **7-Modul. Boshlangʻich sinflarda sintaksis va punktuatsiya elementlarini oʻrganish**

**15-mavzu. Boshlangʻich sinflarda sintaktik tushunchalar ustida ishlash metodikasi.**

Boshlangʻich sinflarda punktuatsiya elementlarini oʻrganish metodikasi. Orfografiyani oʻrganish metodikasi. Ona tilidan bilim, koʻnikma va malakalarni tekshirish.

## **8-Modul. Nutq oʻstirish metodikasi**

**16-mavzu. Kichik yoshdagi oʻquvchilar nutqini oʻstirish yoʻllari va vazifalari.**

Nutq va uni oʻstirish tushunchasi. Oʻquvchilar nutqiga qoʻyilgan talablar. Nutq oʻquvchilar tafakkurini oʻstirishda muhim vosita.

**17-mavzu. Lugʻat ustida ishlash.**

Maktabda lugʻat ustida ishlashning asosiy yoʻnalishlari. Soʻz maʼnosini tushuntirish metodikasi. Oʻqish, badiiy asarni qayta hikoyalash, materialni oʻrganish, bayon va inshoga tayyorlanish bilan bogʻliq holda oʻquvchilar lugʻatini faollashtirish yoʻllari.

**18-mavzu. Bogʻlanishli nutq va uni oʻstirish vazifalari.**

Bogʻlanishli nutq haqida umumiy tushuncha. Bogʻlanishli nutqdan mashq turlari. Bogʻlanishli nutqqa oid aniq koʻnikmalar.

**19-mavzu. Bogʻlanishli nutq. Ogʻzaki qayta hikoya qilish va yozma bayon.**

Namunaviy matnni qayta hikoyalash va bayon yozishga qo'yilgan talablar. Qayta hikoyalash va bayonning turlari.

**20-mavzu. Bog'lanishli nutq. Og'zaki hikoya va yozma insho.**

Og'zaki va yozma insho turlari. O'quvchilar inshosini tahlil qilish va undan keyingi ishlar. Nutqiy xatolar va ularni bartaraf etish yo'llari. O'quvchilar yo'l qo'yadigan nutqiy xatolarning asosiy turlari, ularni to'g'rilash va oldini olish yo'llari.

**9-Modul. Boshlang'ich sinf ona tilidan sinfdan tashqari ishlar**

**21-mavzu. Ona tilidan sinfdan tashqari ishlar.**

Sinfdan tashqari ishlarning shakllari va vazifalari.

**3. BOSHLANG'ICH MATEMATIKA KURSI NAZARIYASI**

**1-mavzu: To'plamlar.**

To'plam tushunchasi. To'plamning elementi. Bo'sh to'plam. Chekli va cheksiz to'plamlarga misollar.

**2-mavzu: To'plamlarning berilish usullari.**

To'plamlarning berilish usullari. Teng to'plamlar. To'plam osti. Universal to'plam. Eylar-Venn diagrammalari.

**3-mavzu: To'plamlar va ular ustida amallar.**

To'plamlarning kesishmasi, birlashmasi, ikki to'plamning ayirmasi, universal to'plamgacha to'ldiruvchi to'plam.

**4-mavzu: To'plamlar va ular ustida amallar.**

To'plamlarning dekart ko'paytmasi. To'plamlar ustidagi amallarning xossalari.

**5-mavzu: To'plamlarni sinflarga ajratish.**

To'plamlarni o'zaro kesishmaydigan to'plam ostilariga (sinflarga) ajratish tushunchasi. To'plamlarni bitta, ikkita va uchta xossaga ko'ra sinflarga ajratish.

**6-mavzu: Moslik va munosabatlar**

Moslik va munosabatlar. Ikkita to'plam elementlari orasidagi moslik. Moslikning grafi va grafigi.

**7-mavzu: To'plamni akslantirish.**

To'plamni akslantirish. To'plamni to'plamga o'zaro bir qiymatli akslantirish. Teng quvvatli to'plamlar.

**8-mavzu: To'plamdagi munosabat**

To'plamdagi munosabat, uning xossalari. Refleksiv, antirefleksiv, simmetrik, assimetrik, antisimmetrik va tranzitiv.

**9-mavzu: Ekvivalentlik munosabati.**

Ekvivalentlik munosabati. Ekvivalentlik munosabatining to'plamlarni sinflarga ajratish bilan aloqasi. Tartib munosabati.

**10-mavzu: Kombinatorika elementlari**

Kombinatorika elementlari. Kombinatorika masalalari. Yig'indi va ko'paytma qoidasi.

**11-mavzu: O'rinlashtirish va o'rin almashtirishlar.**

Takrorlanadigan va takrorlanmaydigan o'rinlashtirishlar va o'rin almashtirishlar.

**12-mavzu: Gruppalashlar.**

Takrorlanmaydigan gruppalashlar. Chekli to‘plamlarning to‘plam ostilari soni.

**13-mavzu: Matematik mantiq**

Matematik tushuncha. Tushunchaning hajmi va mazmuni. Tushunchani ta’riflash usullari va ularga misollar.
